

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

DSs.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

KARAMATOVA DILFUZA SADINOVNA

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QITUVCHILARINING EKOLOGIK
MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Karamatova Dilfuza Sadinovna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish..... 3

Караматова Дилфуза Садиновна

Совершенствование методики развития экологической культуры будущих учителей начальных классов..... 23

Karamatova Dilfuza Sadinovna

Improving the methodology for the development of the ecological culture of future primary school teachers..... 45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 49

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

DSs.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

KARAMATOVA DILFUZA SADINOVNA

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QITUVCHILARINING EKOLOGIK
MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Ped7813 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tdpu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
(PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Yakubjanova Dilobar Botirovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Isakulova Nilufar Janikulovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSs.03/30.01.2020. Ped.26.01-raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «___» _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri Chilonzor tumani Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.:(99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-80-86, e-mail: tdpu_kengash@edu.uz.)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100185, Toshkent shahri Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-80-86.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2025 yil «___» _____ dagi _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

N.A.Muslimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, p.f.d., professor

R.G.Isyanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, p.f.n., dotsent

Z.Mamarajabova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Jahonda talabalar ekologik madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning samarali modellari ta'lim jarayoniga tadbiriq etilmoqda. Talabalar ekologik madaniyatini, ekologik ongini, tafakkurini va dunyoqarashni shakllantirish ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish uyg'unligini ta'minlash va pedagogik loyihalashtirish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning ekologik madaniyatini ilmiy-pedagogik darajalarini valeologiya va ekologik masalalarni yaxlitligini ta'minlashga qaratilgan amaliy ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida inson salomatligiga uyg'un munosabatda ekologik madaniyatni rivojlantirish, ekologik madaniyatni rivojlantirishning asosiy tamoyillarini aniqlash hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga izchillik bilan bosqichma-bosqich tatbiriq qilish, ekologik madaniyatning samaradorligini aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda ekologik bilimlarni targ'ib etish, ta'lim dasturlarida ekologik mazmundagi mavzularda talabalarning e'tiborini umumbashariy ekologik muammolarga qaratish orqali mas'uliyatini kuchaytirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish, yer usti va yer osti boyliklaridan oqilona foydalanish, tabiatni asrash, ekologik tarbiya, ekologik targ'ibot, ekologik ta'lim, ekologik madaniyatini takomillashtirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Atrof-muhitning qulay ekologik holatini, ekologik tizimlar, tabiiy komplekslar va alohida obyektlar muhofaza qilinishini, ekologik sharoitning sog'lomlashtirilishini ta'minlash"¹. kabi ustuvor vazifalari etib belgilandi. Natijada, bo'lajak o'qituvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirish, ekologik ta'lim-tarbiya tizimini tashkil etish, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlashning pedagogik imkoniyatlari kengaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF 60-son 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018 yil 13 avgustdagi PQ-3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022 yil 2 dekabrdaqi PQ-436-son "2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydaqi 434-son «O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5024-son farmoni. 2017 yil 21 aprel.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ekologik madaniyatni rivojlantirish bo‘yicha E.O.Turdiqulov, A.N.Nigmatov, D.Safarova, E.A.Seytxalilov, K.S.Sodiqov, B.A.Sodiqov, A.S.Qo‘chqorova, Sh.Q.Qurbonov, Sh.X.Xankeldiyev, A.Abdullaev, M.Tairova, D.D.Sharipova, Z.Sh.Saidabdullaeva, J.Tolipova, T.S.Nodirov, X.B.Tuxtaxo‘jaev, T.M.Ummatqulov, F.T.Fayzieva, X.Shayxova, T.S.Saidov, K.A.Farfiyeva, N.O‘.Nishonova, T.L.Arbuzova, N.J.Isakulova, O‘.Xo‘janazarov, N.Sh.Bozorova, M.M.Aliqulova, X.A.Raxmatova, A.R.Malikova, F.U.Jumanova, N.Sh.Mannapova, M.M.Qahharova, L.Qodirova, X.B.Norbo‘tayev, L.M.Abdunazarovlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ekologik madaniyatni rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari Sh.A.Amonashvili, T.A.Antonov, I.G.Berdnikov, A.N.Gaydamak, YE.Y.Daurenov, L.B.Dixan, G.K.Zaysev, E.G.Zarkeshev, M.A.Ziskina, V.V.Ilyushenkov, V.P.Kaznacheyev, A.O.Katsura, L.S.Nagavkina, I.Ye.Nurgatina, T.F.Orexova, Ye.V.Perevozchikova, R.Prosperin, T.M.Starikova, L.P.Sushenko, A.V.Utkina, N.I.Chusovitina, Ye.A.Yugovalarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Xorijiy davlatlarda E.G.Eakin, S.P.Lawler, C.Vandelanotte, N.Owen, F.Gander, R.T.Proyer, W.Ruch, T.Wyss, R.E.Glasgow, C.L.Davis, M.M.Funnell, A.Beck, D.S.Grigsby-Toussaint, K.N.Turi, M.Krupa va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida ekologik madaniyatni rivojlantirishning metodik ta‘minotini yaratish masalalariga oid tadqiqot ishlarni amalga oshirishgan.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining “Pedagogik yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha ilg‘or pedagogika texnologiyalarini joriy etsih, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-ta‘lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimediya va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish” nomli ustuvor yo‘nalish doirasida bajarilgan.(2020-2024) yillar

Tadqiqotning maqsadi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirishning metodik imkoniyatlarini aniqlash;

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar ekologik madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ekologik madaniyatini loyihalash metodikasini samaradorligini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, Toshkent davlat pedagogika universiteti, Qo'qon davlat pedagogika instituti, Jizzax davlat pedagogika universitetlaridan 500 nafar talabalar ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar ekologik madaniyatini rivojlantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda adekvat holatda o'rganishni ta'minlashga qaratilgan metodlar majmui qo'llanildi: nazariy (tahliliy sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya), diagnostik (so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik eksperiment va matematik metodlar (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va boshq.).

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirishning metodik imkoniyatlari pedagogik antropologiya, ijtimoiy-pedagog, ilmiy pedagogik, metodik darajalarining filogenetik va ontogenetik tarkibiy qismlar dinamikasi hamda pedagoglarning ekologik tayyorgarligini deduktiv tavsiflashga doir tushunchalar va tabiatga mos bio-eko-ijtimoiy shaxsga yo'naltirganligini ta'minlash asosida aniqlashtirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirish modeli atrof-muhit bilan ekologik munosabatlar, tabiiy-ijtimoiy muhit va yer sivilizatsiyasi, shaxs va yoshga oid xususiyatlar hamda shaxsiy xislatlarni o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza etish, ekologik vaziyat, irsiyatiga faol moslashtirish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirish metodikasi ekologik madaniyatning samaradorligi, ekologik mazmundagi mavzularni to'liq, to'liqmas, qisimli, vaqtinchalik, aralash integratsiyasini hamda aql idrokni rivojlantirish va tabiatga muvofiq shakllanishiga doir komillik hodisani ta'lim bosqichlariga oid obyektiv mohiyatini ochib berish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ekologik madaniyatini loyihalash metodikasi samaradorligi tabiiy va odatiy gomologik tajriba, g'oyalar va insaytni bashorat qilish, konstruksiyalash, eksperimental va texnologik ta'minlash hamda kompleks jarayon natijasini verdikatsiyalash va g'oyani, niyatni fikrni yaxlitlash mezonlari asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ekologik madaniyatni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirish mezonlari (texnologik, reflektiv), darajalari (intuitiv, normativ, ijodiy), ko'rsatkichlari aniqlashtirilgan;

“Pedagoglik kasbiga kirish”,(2022 yil 9-sentyabrdagi 302 sonli buyrug'i asosida berilgan 302-1170 raqamli nashr ruxsatnomasi) “Tabiatshunoslik va uni o'qitish

metodikasi” (2023 yil 27 martdagi 68 sonli buyrug‘iga asosida berilgan 68-896 raqamli nashr ruxsatnomasi) nomli o‘quv qo‘llanmalar nashr etilgan

Tadqiqot natijalarining ishonchligi muammoga pedagogik, psixologik, metodik yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirish metodikasi hamda pedagogik ta‘lim sohasidagi respublikamiz, chet ellik olimlar, shuningdek, amaliyotchi pedagoglarning ishlariga asoslanganligi; tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o‘zaro bir-birini to‘ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo‘llanilganligi; tahlil va tadqiqot tavsifining miqdor, shuningdek, sifat jihatdan ta‘minlanganligi; tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ekologik madaniyat tushunchasi, uning mazmun-mohiyati, inson-tabiat munosabatlarining ijtimoiy-tarixiy asoslari, inson-tabiat mas‘uliyatli munosabatlarini tizimli o‘rganilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar ekologik madaniyatini rivojlantirishni loyihalashtirishning konseptual asoslari, pedagogik loyihalashtirish hamda modelidan ta‘lim yo‘nalishi davlat ta‘lim standarti, malaka talablari, yangi avlod darslik, o‘quv va metodik qo‘llanmalarini yaratishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga oid olingan ilmiy natijalari asosida:

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirishning metodik imkoniyatlari pedagogik antropologiya, ijtimoiy-pedagog, ilmiy pedagogik, metodik darajalarining filogenetik va ontogenetik tarkibiy qismlar dinamikasi hamda pedagoglarning ekologik tayyorgarligini deduktiv tavsiflashga doir tushunchalar va tabiatga mos bio-eko-ijtimoiy shaxsga yo‘naltirganligini ta‘minlash asosida aniqlashga oid tavsiyalar “Pedagoglik kasbiga kirish” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024- yil 20-noyabrdagi 11-05-6669/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirish samaradorligi oshgan;

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirish metodikasi ekologik madaniyatning samaradorligi, ekologik mazmundagi mavzularni to‘liq, to‘liqmas, qismli, vaqtinchalik, aralash integratsiyasini hamda aql idrokni rivojlantirish va tabiatga muvofiq shakllanishiga doir komillik hodisani ta‘lim bosqichlariga oid obyektiv mohiyatini ochib berish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar “Tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024- yil 20-noyabrdagi 11-05-6669/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishga sharoit yaratilgan;

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar ekologik madaniyatini rivojlantirishning loyihalashtirish texnologiyalari atrof-muhit bilan ekologik munosabatlar, tabiiy-ijtimoiy muhit va yer sivilizatsiyasi, shaxs va yoshga oid xususiyatlar hamda shaxsiy

xislatlarni o‘simlik va hayvonot dunyosini muhofaza etish, ekologik vaziyat, irsiyatiga faol moslashtirish asosida takomillashtirishga oid takliflar “Pedagoglik kasbga kirish” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024- yil 20-noyabrdagi 11-05-6669/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ekologik madaniyatni loyihalashtirish jarayonlarini takomillashtirishning didaktik ta‘minoti takomillashtirilgan;

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ekologik madaniyatini loyihalash metodikasi tabiiy va odatiy gomologik tajriba, g‘oyalar va insaytni bashorat qilish, konstruksiyalash, eksperimental va texnologik ta‘minlash hamda kompleks jarayon natijasini veridikatsiyalash va g‘oyani, niyatni fikrni yaxlitlash mezonlari asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar “Tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024- yil 20-noyabrdagi 11-05-6669/04 raqamli dalolatnomasi). Natijada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirishda o‘quv loyihalaridan foydalanishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 12 ilmiy-uslubiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik (PhD) dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr ettirilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, asosiy matn 125 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi tahlil etilgan, tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari, obykti va predmetlari aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, amalda joriy etilishi holati, ishning aprobatsiya natijalari, e‘lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ekologik madaniyatni rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida ekologik madaniyat tushunchasi va uning mazmun-mohiyati, insonning tabiat bilan munosabatlarining ijtimoiy-tarixiy rivojlanishi hamda mas‘uliyatli munosabatlarini tizimli rivojlantirish yoritilgan.

Tabiiy, ijtimoiy va shaxsiy omillarning tarixan o‘zaro aloqalarida insoniyat rivojlanishi, «inson-jamiyat-tabiat» tizimi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ekologik, valeologik, ta‘limga oid majmuaviy inqirozlari, ularning birgalikda moslashuvi ekologik muammolarga sabab bo‘ladi. Hozirgi vaqtda ta‘lim zamonaviylashuvi munosabati bilan xalqaro va davlat miqyosida bir qator hujjatlar qabul qilindi. Mazkur

hujjatlarda kishilar ijtimoiy guruhlar, tabiat, ijtimoiy-tabiiy muhit va o'z-o'ziga nisbatan oqilona, mas'uliyatli munosabatlarni shakllantirishda tabiiy-ilmiy ta'limning muhim ahamiyati ta'kidlanadi.

Yuzaga kelgan muammo yechimi bilan bog'liq ekologiya, ularga mos keluvchi ta'lim sohalari, uning samarali hal etilishiga ham yordam ko'rsatdi. Bu mustaqil xalqaro va umumjahon ekspertizalari natijalari, shuningdek, vujudga kelgan inqirozlar, eng avvalo, ekologik va valeologik inqirozlar bilan tasdiqlanadi. O'rganilayotgan muammoni hal etish ekologik ta'limni turli darajalarda rivojlantirish zaruratiga olib keldi. Bunda ta'lim jarayonidagi birlamchi bo'g'in sifatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirishdan boshlash maqsadga muvofiqdir.

Ekologik madaniyat – bu tabiatga bo'lgan hurmat va u bilan barqaror munosabatni aks ettiruvchi qadriyatlar, urf-odatlar va hayot tarzi tizimidir. U insonning tabiat bilan bog'liqligini tushunish va unga zarar bermasdan yashashni o'z ichiga oladi. Bunda ekologik madaniyat tabiiy resurslarni asrash, ulardan oqilona foydalanish, barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlash, ekologik ongni oshirish, chiqindilarni kamaytirish, qayta ishlash, energiya tejamkorligini kuchaytirish, ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarish va atrof-muhitni himoya qilishni ta'kidlaydi. Shu tarzda, ekologik madaniyat faqatgina tabiatni saqlab qolish, balki insoniyatning barqaror rivojlanishiga yordam beruvchi madaniy yondashuvdir. Ekologik madaniyatning tarkibiy komponentlari tabiat bilan barqaror va muvozanatli munosabatlarni shakllantirishga yordam beradi va quyidagilardan iborat: 1) Ekologik ong (bilim) komponenti tabiat va uning ekosistemalari haqida bilimga ega bo'lishni, ekologik muammolarni tushunishni va ularga qanday munosabatda bo'lishni anglatadi. Ekologik ong tabiatdagi o'zgarishlar, resurslar iste'moli, chiqindilarni boshqarish, iqlim o'zgarishi kabi masalalar haqida xabardorlikni oshirishga xizmat qiladi. 2) Ekologik qadriyatlar va axloq komponenti o'z ichiga tabiat va unga bog'liq resurslarni hurmat qilish, ularni asrab-avaylash, iste'mol qilishda ehtiyotkorlik va resurslarni tejash kabi qadriyatlarni oladi. Ekologik axloq insonga tabiat bilan muvozanatli va hamkorlikda yashashning zarurligini tushuntiradi. 3) Barqaror rivojlanish komponenti insoniyatning ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishda, resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik ziyonni minimallashtirishga asoslanadi. Barqaror rivojlanish ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarni bir-biriga bog'lab, uzluksiz va adolatli rivojlanishga yordam beradi. 4) Ekologik ta'lim va tarbiya komponenti ekologik muammolarni tushunishga, ularni hal qilishning samarali yo'llarini o'rgatishga yordam beradi. Bu nafaqat maktablarda, balki butun jamiyatda, yoshdan katta yoshgacha bo'lgan odamlarni atrof-muhitni asrashga rag'batlantirishni anglatadi. 5) Ijtimoiy mas'uliyat komponenti har bir inson va jamiyat o'z atrof-muhitiga bo'lgan mas'uliyatni his qilishlari kerak. Bu o'zgarishlarga olib keluvchi faollikni ko'rsatish, ekologik siyosatlarini qo'llab-quvvatlash va yashash joylarini himoya qilishni o'z ichiga oladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ekologik madaniyatni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari ekologik madaniyatni rivojlantirishda ta'lim tamoyillari, yondashuvlari, bosqichlari va ta'sir etuvchi omillaridan iborat.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ekologik madaniyatni rivojlantirishda ta'limning ilmiylik, ta'lim-tarbiyaning birligi, tizimlilik va izchillik, ko'rsatmalilik va ko'rgazmalilik, onglilik, faollik va mustaqillikka erishish, tushunarlilik, puxtalik va tizimli o'zlashtirib olish, individuallashtirish o'quvchi-talabalarning shaxsiy va yosh xususiyatlarini hisobga olish, fanlararo bog'liqlik, nazariya bilan amaliyot birligi tamoyillaridan foydalandik. Ta'limning ilmiylik tamoyilini loyihalashtirishda ekologik bilim olish va o'rganish, ilm-fan, texnologiya sohalaridagi yangiliklardan xabardor bo'lish, tizimli va mantiqiy fikrlashga asoslangan, ekologiya, tabiiy resurslar va ularni asrash, tabiat bilan insonning o'zaro aloqasiga oid tajriba va eksperimentlarga tayangan yondashuvlarni ifodalanadi. Ta'lim-tarbiyaning birligi tamoyilida talabani tabiiy-ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatlari, ekologik tarbiyasi, ekologik ta'limi, tabiatda o'zini tutush qoidalari nazarda tutilgan. Ta'limning tizimlilik va izchillik tamoyili ekologik ta'limning barcha tarkibiy qismlari o'zaro bog'liqligi, ekologiyaga oid tushunchlar tizimi, tabiat bilan o'zaro aloqalari, uzluksiz ekologik ta'limni ta'minlashni anglatadi. Ta'limning ko'rsatmalilik va ko'rgazmalilik tamoyili esa ekologik ta'limda vizual vositalardan, ya'ni diagrammalar, kartalar, videolar, foto-rasmlar, infografikalar va boshqa ko'rgazmalar orqali foydalanishni anglatadi. Ta'limning onglilik, faollik va mustaqillikka erishish tamoyili ekologik bilimlarni talabalarga samarali tarzda yetkazish va ularni atrof-muhit muammolariga faollik bilan yondashishi orqali ekologik madaniyatni rivojlantiriladi. Ekologik masalalar va tabiatni muhofaza qilish bo'yicha samarali bilimlarni rivojlantirish ekologik tushunchalarni to'g'ri va puxta tarzda yetkazish, bir-biri bilan bog'liqligini tushunishga ta'limning tushunarlilik, puxtalik va tizimli o'zlashtirib olish tamoyili imkon beradi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik amaliyotida individuallashtirish o'quvchi-talabalarning shaxsiy va yosh xususiyatlarini hisobga olish tamoyili loyihalashtiriladi. Bunda 1-4-sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ekologik mazmundagi mashq va masalalar tanlab olinadi, birgalikda bajariladi. Ta'limning fanlararo bog'liqlik tamoyilida ekologik mazmundagi mavzular ta'lim bosqichlari va fanlar kesimida o'rganiladi. Masalan, "Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar", "Biologiya asoslari", "Pedagogik kasbiga kirish" fanlarining aloqadorligi. Ta'limning nazariya bilan amaliyot birligi tamoyili ekologik ta'lim jarayonida o'quvchilarni nazariy bilimlar bilan birga ularning hayotida qo'llash uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalar bilan tanishtirishni maqsad qiladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ekologik madaniyatni rivojlantirishda quyidagi zamonaviy yondashuvlarga asoslandik:

gnoseologik yondashuv (ilmiy bilish tabiat, jamiyat va inson haqida tasdiqlangan bilimlarni yaratishga qaratilgan faoliyat turi sifatida tabiiy, ijtimoiy, ruhiy-ma'naviy jarayonlar mohiyati va qonuniyatlarini ochib berishga qaratilgan bo'lib, uni amalga oshirish uchun bir qancha maxsus tushunchalar, tamoyillar va tadqiqot usullarini ishlab chiqish zarur hisoblanadi);

tizimli yondashuv (shaxs kasbining tabiatga ijobiy va salbiy ta'siri, tabiat va shaxs ehtiyojlaridan kelib chiqish zarurligini e'tirof etadi);

texnologik yondashuv (ta'lim jarayoniga yangi texnologiyalarni joriy etishda ekologik bilimlarni o'zlashtirilishini kafolatlash, ekologik ta'limning mohiyati, bosqichlari, o'ziga xos xususiyatlari);

integrativ yondashuv (olaning yaxlitligi va uni tashkil etuvchi qism (element) larning o‘zaro aloqadorligiga asoslanib, ta’lim mazmunini integratsiyalash ya’ni o‘zaro uzviy aloqador, bir-birini taqozo etadigan, kengaytiradigan, chuqurlashtiradigan o‘quv predmetlari mazmunini sintezlash, ularni mantiqiy birlashtirib bir butun (yaxlit) holga keltirish, o‘rganilayotgan obyektlarning xususiyatlarini tizimlashtirishni nazarda tutadi);

aksiologik yondashuv (madaniyatni inson hayotining mazmuni sifatida tushuntirib, qadriyatlarni reallikning namoyon bo‘lish shakllari, voqelikdagi narsa, hodisa va jarayonlar, olamda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, insoniyat, jamiyat, odamlar, ularning hayoti, faoliyatining ijtimoiy subyektlar uchun ahamiyati va qadrini anglatadigan umumaksiologik kategoriya sifatida talqin qiladi).

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ekologik madaniyatni rivojlantirish bosqichlari ekologik ta’limni samarali tashkil etish va ekologik ongni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur 4 ta bosqich ularning ekologik mas’uliyatni his qilishlarini, ekologik bilimlarni o‘zlashtirishlarini va o‘quvchilarga ekologik ta’limni samarali yetkazishlarini ta’minlashga yordam beradi. Ekologik ong va bilimlarni shakllantirish bosqichida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ekologik ongni shakllantirish va ularga ekologik bilimlar taqdim etiladi. Bu bosqich ekologik ta’limning asosiy tushunchalari va tamoyillarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, o‘qituvchilarni atrof-muhitga nisbatan mas’uliyatli yondashuvni shakllantirishga yordam beradi. Amaliy faoliyatlar va loyihalar orqali o‘rgatish bosqichi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini amaliy faoliyatlar va ekologik loyihalar orqali ekologik mas’uliyatni his qilishga o‘rgatishga qaratilgan. Ekologik mas’uliyatni rivojlantirish bosqichi o‘zlarini ekologik mas’uliyatli shaxslar sifatida rivojlantirishni davom ettiradilar. Ekologik madaniyatni o‘quvchilarga o‘rgatish bosqichi egallagan ekologik bilimlari va ko‘nikmalarini pedagogik amaliyotda o‘quvchilarga samarali tarzda o‘rgatishni boshlaydilar.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ekologik madaniyatni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar sifatida talabalarning ekologik ongi va mas’uliyati, ta’lim muassasasining ekologik siyosati (“Yashil makon”), ekologik muammolar va bilimlar, ijtimoiy va ekologik muhit olinadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish, metodologik va texnologik jihatdan ishlab chiqish, amalga oshirishga qaratilgan tadqiqotning dolzarbligi biz tomonimizdan 4 ta darajada o‘rganilgan.

Pedagogik antropologiya darajasi: N.F.Reymersning sistemogenetik qonuniga muvofiq ishlab chiqilgan K.D.Ushinskiy, B.M.Bim-Bad, O.F.Bolnov, B.A.Nikityuk, G.A.Novichkova, V.P.Kaznacheev, A.I.Subetto, M.Sheler, N.Gartman, G.Plesner, V.Frank, V.V.Rozanov, M.M.Baxtin. Insonning ijtimoiy guruhlar, tabiat, tabiat-ijtimoiy muhit va o‘z-o‘zi bilan munosabatlarining ijtimoiy-tarixiy rivoji antropologiya bo‘yicha chop qilingan asarlari asosida tahlil qilinadi. Ijtimoiy-tarixiy munosabatlar, hozirgi davrda moslashuvi, bir bosqichdan boshqa bosqichga tarixiy o‘tish izchilligi aniqlanadi. Inson munosabatlarining ontogenetik rivojlanishi uning filogenetik rivojlanishi bilan munosabatda bo‘ladi.

Ijtimoiy-pedagogik daraja: tipologik darajaviy ko‘rinishlarida ta’lim shaxs shakllanishi, insonning atrof-muhit va o‘z-o‘zi bilan munosabatlarini shakllanishiga qaratiladi. Biroq pedagoglarni tizimli va aniq maqsadga qaratilgan tayyorlash yetarlicha samaraligi munosabati tabiiy-ijtimoiy sharoitga, o‘zining farovonligiga, salomatligiga nisbatan o‘sib kelayotgan avlodning oqilona, mas’uliyatli munosabatlarini mo‘ljallagan pedagoglarning ekologik kompetentligini rivojlantirish zarur. Bunda jamiyat ijtimoiy-ekologik inqirozi insonning o‘zi hayot va sog‘lig‘ning yuksak qimmatini his etadi.

Ilmiy-pedagogik daraja: kishilar tabiat va ijtimoiy-tabiiy muhit bilan o‘z-o‘ziga, o‘zining farovonligi va sog‘lig‘iga munosabatini shakllantirishda tadqiqotlar paydo bo‘ldi. Bunda ta’lim tizimida ekologik ta’lim konsepsiyasi ishlab chiqildi, biroq pedagoglar kasbiy tayyorgarligining nazariy-amaliy ekologik ta’minoti mavjud emas.

Ilmiy-metodologik daraja: aqliy, mulohazaviy, ijtimoiy xulq-atvor va kommunikativ faoliyat sohasidagi kashfiyotlar o‘sib kelayotgan avlodni o‘qitish, tarbiyalash va aniq maqsadga qaratilgan holda yanada rivojlantirishni belgilab bermaydi. Insonning tabiiy-ijtimoiy muhit bilan o‘z-o‘zi bilan munosabatlarining filogenetik va ontogenetik dinamikasida amalga oshiriladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar ekologik madaniyatining metodologiyasi muammosi talabalarning umumiy kasbiy-pedagogik tayyorgarligi hamda kasbiy-pedagogik ta’limi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi. Mamlakatimizda ham, butun dunyoda ham insonning tabiat va jamiyat o‘rtasidagi oqilona munosabatlar sohasidagi tadqiqotlar ancha o‘ziga xos keng jabhada olib borildi. Shu o‘rinda tabiat (ekologiya), farovonlik, inson salomatligi (valeologiya) va mehnatga oid munosabatlar sohasidagi eng muhim g‘oya va ishlarni qayd etamiz. Ta’limning barcha turlari asosida amalga oshirilayotgan ekologiya va aholi salomatligini maqsadli rivojlantirish, shuningdek, ekologik va sog‘lomlashtirish ta’lim-tarbiyasi hamda rivojlanishining zarurligi chuqur anglab yetilmoqda.

Dissertatsiyada o‘z tarixiy rivojlanishida umumiy ekologiya quyidagi ilmiy va amaliy muammolarni hal qilishning fundamental asosiga aylanishi: nafaqat xususiy ekologik, balki tabiiy ilmiy fanlar integratsiyasi; integratsiyalashgan ekologiyaning falsafa va sotsiologiya bilan chuqur aloqasi; nafaqat tabiiy obyektlarni (klassik ekologiya), balki tabiiy-ijtimoiy obyektlarni ham o‘rganish (zamonaviy ekologiya); nafaqat tabiiy fanlarni, balki atrof-muhit, sog‘liqni saqlash va atrof-muhitni muhofaza qilish bilimlarini ekologiyalashtirishning amaliy ahamiyatini oshirish; asosiy mohiyatiga ko‘ra inson va aholining turli guruhlari (jamiyat) bilan atrof-tabiiy va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi oqilona munosabatlarni maqsadga muvofiq shakllantirishga qaratilgan pedagogika va ta’limning ekologiyalashtirilishi; ishlab chiqarish, ilmiy-texnik, demografik va boshqa muammolarni hal qilish zarurati sifatida ekologik yondashuv ekanligi aniqlangan.

Demak, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ekologik madaniyati-tabiiy fanlar integratsiyasi, atrof-muhit, sog‘liqni saqlash, aholi turli guruhlari orasidagi o‘zaro manfaatli munosabatlarga mos bilimlarini ekologiyalashgan majmua tizimi deb ta’riflash mumkin.

Dissertatsiyaning **“Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar ekologik madaniyatini rivojlantirish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida bo‘lajak

boshlang'ich sinf o'qituvchilari ekologik madaniyatini rivojlantirish tizimini loyihalashtirishning konseptual asoslari, pedagogik loyihalashtirish hamda o'quv loyihalaridan foydalanish yoritilgan.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirish loyihasining birlamchi ishlab chiqilishini nazarda tutgan holda, biz asossiz, dalil-isbotsiz o'ylab chiqarishni avval boshidan istisno qilamiz va dolzarb (ijtimoiy va shaxsiy jihatdan ahamiyatli) aniq muammoni tadqiq qilishning yuqorida ko'rib chiqilgan oldini oluvchi omil bosqichlariga, tarixiy va odatiy gomologik tajriba tahliliga, empirik jihatdan bog'liq bo'lgan g'oyalar va insaytni vujudga keltirishga mo'ljal olamiz. Keyin esa (loyihani bevosita ishlab chiqish va keyingi pedagogik ixtirochilik yo'lida) "Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirish" metodikasini konseptual asoslash va ilmiy-texnologik ta'minlashni tahlil qilamiz.

Ko'rsatilgan mavzu loyihasini bevosita ishlab chiqishda pedagogik loyihalashtirish konsepsiyalariga oid tadqiqotlarga murojaat qilamiz. Masalan, O.B.Yepisheva, A.Y.Liberov, A.S.Meshcherikov, M.N.Nevzorov, V.Ye.Radionov, T.K.Smikovskaya, N.O.Yakovlevalarning ishlarini qayd etamiz.

O'zimizdan qo'shimcha qilamizki, yuqorida ko'rsatilgan ilmiy ishlarda pedagogik loyihalashtirish metodologiyasi yetarlicha to'liq taqdim qilingan emas, xususan, obyektiv hodisalarni oldindan tahlil qilish uslublari ajratib ko'rsatilgan emas, aslida avval mavjud bo'lmagan biror-bir obyekt yoki jarayonni loyihalashtirish zaruratiga aynan shu uslublari sabab bo'ladi. Mazkur kamchiliklarni bartaraf etishda pedagogik loyihalashtirishning asosiy yo'nalishlari taqdim etamiz: pedagogik loyihalashtirish nazariyasi va amaliyoti ijtimoiy-tarixiy asoslarini hamda uning zamonaviy holatini tahlil qilish; pedagogik loyihalashtirishning yaxlit nazariyasini tuzish; pedagogik loyihalashtirish konsepsiyasining nazariy-metodologik asoslarini tavsiflash; pedagogik loyihalashtirish metodikalari va texnologiyalarini yaratish; pedagogik loyihalashtirish konsepsiyasi o'ziga xos ko'rinishda tatbiq qilinishi mumkin bo'lgan ta'lim hodisalari turlarini tavsiflash; loyihalashtiruvchi faoliyat samaradorligining pedagogik omillarini, shart-sharoitlarini aniqlash.

Tabiatda mavjud bo'lgan, inson, tabiat va jamiyat munosabatlari shaklidagi hodisalar tarixiy rivojlanishining mohiyatan ko'rinishlarini kuzatib, biz ushbu o'zaro munosabatlar inson ongida aks etishining tarixiy rivojlanishini ko'rib chiqdik. Shu bilan birga, aks etish ham munosabat (o'ziga xos bo'lsa ham), ya'ni obyektiv, balki uning moddiy mavjud bo'lish, namoyon bo'lish usullari bo'yicha ham hodisadir. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ekologik madaniyatni rivojlantirishda ta'limning quyidagi metodlarini loyihalashtirdik:

ta'limning og'zaki metodlari (ekologik mazmundagi hikoyalar, tabiatni muhofaza qilish bo'yicha suhbatlar, ekologik bilimlarni tushuntirish, ekologiya mavzusidagi ma'ruzalar, o'simlik va hayvonot olamini asrash, yer osti va usti boyliklaridan oqilona foydalanish bo'yicha bahs-munozaralar); ta'limning ko'rgazmali metodlari (O'zbekiston xaritasi, "Orol bo'yi" rasmi, tabiatni ifloslanishi aks etgan fotosuratlar, plakatlar, O'zbekiston davlat tabiat muzeyiga ekskursiyalar); ta'limning amaliy metodlari (ekologik mazmundagi mashqlar, masalalar, esse, doklad, referat, insholar yozish); ta'limning rag'batlantirish va tanbeh berish metodlari (tabiatda o'zini tutish

qoidalarini ishlab chiqish, o'z hududlarida ekologik sharoitlarni kuzatishlari asosida); ta'limning nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari (test, yozma ish, blits so'rov).

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar o'quv fanlari doirasida qo'shimcha ravishda: suvni tejash va asrash; atmosfera havosining ahamiyati va uni muhofaza qilish; yer resurslari va yer osti boyliklaridan oqilona foydalanish; o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish; chiqindilarni yig'ish va joylashtirish; O'zbekistonning go'zal va takrorlanmas tabiatini asrash; o'zi yashaydigan qishloq (shahar) tabiatini asrashda faol ishtirok etish; O'zbekistondagi qo'riqxonalar va tabiat bog'lari to'g'risida; Orol dengizi fojiasi to'g'risida umumiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim. Mazkur bilim va ko'nikmalarni takomillashtirishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ekologik madaniyatini rivojlantirish talab etiladi. Buning uchun ekologik madaniyat, uning darajasini aniqlash lozim.

Shaxs ekologik madaniyat darajasi, uning amaliy faoliyati, his-tuyg'ulari, emotsional holati jamiyat ekologik voqealigi va ma'naviy-madaniy rivojlanish xususiyatlarini ifodalaydi. XX asr madaniyatshunosligida madaniyat fenomenini moddiy va ma'naviy sohalarga ajratib ko'rsatishning nisbatan ustuvor metodologiyasiga asoslanadigan bo'lsak, ekologik madaniyatni ham "moddiy ekologik madaniyat" va "ma'naviy ekologik madaniyat" ga ajratish mumkin. Ekologik moddiy madaniyat ishlab chiqarishning ekologik texnologiyalarga asoslanishi bilan bog'liq bo'lsa, muqarrar ravishda, ekologik texnologiya madaniyatini taqozo qiladi. Madaniyatning bu shakli esa, o'z navbatida uning intellektual asoslaridan ajralgan emas. Aksincha, bu sohadagi madaniyatning «moddiyligi», uning ma'naviyligi, moddiyligining shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Ekologik ta'limning muhimligi hozirgi zamonaviy dunyoda hech kimda shubha uyg'otmasligi bilan birgalikda ko'plab mamlakatlarda ta'lim va tarbiya berishning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Aholi ekologik madaniyati va atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishiga qaratilgan ushbu faoliyat – butun insoniyat kelajagi xavfsizligining garovidir.

Yoshlar ekologik madaniyatini tarbiyalash ta'lim faoliyatining dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bo'lajak boshlang'ich o'qituvchilarda ekologik bilimlar qanchalik kichik yoshdan shakllansa, bunday ta'lim shunchalik katta samara beradi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning ekologik madaniyatini rivojlanishi quyidagi darajalar asosida aniqlanadi: past daraja – integrativ topshiriqlarni xatolar bilan bajarilishi; o'rta daraja – integrativ topshiriqlarni qisman to'g'ri, xatosiz bajarilishi; yuqori daraja – integrativ topshiriqlarni to'g'ri, xatosiz bajarilishi. Mazkur metodikani amaliyotga joriy etishda quyidagi vazifalarni bajarish maqsadga muvofiq bo'ladi: oliy ta'lim tizimida ekologik madaniyatni rivojlantirishning asosiy tamoyillarini belgilash, ularni izchillik bilan bosqichma-bosqich ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq qilish, ekologik madaniyatning samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish; ekologik bilimlarni targ'ib qilishda auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish, ta'lim shakllari, metodlari va vositalar integratsiyasidan foydalanish; ta'lim dasturlarini mavjud ekologik mazmundagi mavzularni integratsiyalash; talabalarning e'tiborini umumbashariy ekologik muammolarga qaratish orqali

mas'uliyatini kuchaytirish; ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish tushunchalar integratsiyasini rivojlantirish.

Ishlab chiqilgan metodika bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonda o'z aksini topgan. Talabalar tomonidan juftlik, kichik guruhlar yoki jamoa asosida turli mavzularda o'quv loyihalarini tayyorlash quyidagi bosqichlarda kechadi: loyiha konsepsiyasini ishlab chiqish; loyihaviy faoliyatni tashkil etish; loyihaviy faoliyatni rejalashtirish; loyihaviy vazifalarni hal etish; loyiha (mahsulot)ni rasmiylashtirish; hisobot tayyorlash; taqdimot tayyorlash; loyiha taqdimoti, himoyasi va bahosi; refleksiya; hisobot topshirish.

O'quv loyihasi – talaba yoki o'quvchilar guruhi tomonidan tadqiqot, ijodiy yoki amaliy xarakterdagi muammoga mustaqil, batafsil yechim topishdir. Loyihalarni yaratish bosqichlari quyidagilardan iborat: muammoni tanlash; maqsadni belgilash; maqsadlarni belgilash; axborot ta'lim; ijodiy guruhlarini shakllantirish (talabiga binoan); ichki guruh yoki individual ish; ichki guruh muhokamasi; jamoaviy taqdimot.

Faoliyat mazmuniga ko'ra axborotli, tadqiqot hamda amaliy loyihalardan iborat. "Pedagoglik kasbiga kirish" va "Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar" fanlarini o'qitishda o'quv loyihalaridan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Axborotli loyihalar muammoga oid ma'lumotlarni to'plash, ularni tahlil qilish, umumlashtirish, mohiyatini yoritish, muammoni hal etish metod va vositalarini tavsiflash, ularning ahamiyatini asoslashga yo'naltirilgan. Misol sifatida "Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar" da axborotli loyihalar "Boshlang'ich ta'lim tabiiy fanlarining predmeti, maqsad va vazifalari", "Boshlang'ich ta'lim tabiiy fanlarining ta'limiy-tarbiyaviy vazifalari", "Yerning geografik qobig'i. Litosfera", "Yerning geografik qobig'i. Biosfera", "Hayvonot olamining xilma-xilligi va uning tabiatda tutgan o'rni", "Ekologik muammolar", "Boshlang'ich ta'lim tabiiy fanlarini o'qitish metodlari va vositalari", "O'qitishning amaliy metodlar turlari hamda tavsifi", "Boshlang'ich ta'lim tabiiy fanlaridan ekskursiya darslari", "3-4 sinf "Geografiya va iqtisod" darsliklari bilan tanishish va tahlil qilish" mavzular asosida loyihalashtirilgan.

Tadqiqot loyihalari tadqiqotni amalga oshirish, tadqiqot asosida muammo izohini asoslash, kelgusida rivojlanish uchun yangi muammolarni asoslashdan iborat. "Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar"da tadqiqot loyihalari "Boshlang'ich ta'lim tabiiy fanlari sohasidagi tadqiqot metodlari", "Quyosh sistemasi. Koinot", "Yerning geografik qobig'i. Hidrosfera", "O'simliklar anatomiyasi, fiziologiyasi", "Tabiiy resurslar va ulardan oqilona foydalanish", "Boshlang'ich ta'lim tabiiy fanlarining tamoyillari va qonuniyati", "Metodlar klassifikatsiyasi", "Boshlang'ich ta'lim tabiiy fanlari moddiy bazasini tashkil etish", "Boshlang'ich ta'lim tabiiy fanlarni o'qitishda sinfdan va maktabdan tashqari ishlar", "Oz komplektlangan maktablarda o'quv-tarbiya jarayonini tashkillashtirishning o'ziga xosligi" mavzular asosida loyihalashtirilgan.

